INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

SAID AHMADNING QORAKO‘Z MAJNUN ASARIDA INTERTEKSTUALLIKNING LISONIY NAMOYON BO‘LISHI

Kamola Jovliyeva
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti
3-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: Zilola Boltayeva
O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Qorako‘z majnun” qissasi intertekstuallik tamoyili asosida lisoniy tahlil qilinadi. Bundan tashqari intertekstuallik haqida ham ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, muallif matnida allyuziya, reminissensiya, sarlavha, epigraf hodisalari ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar

Intertekstuallik, allyuziya, reminissensiya, sarlavha, epigraf.

Абстрактный

В данной статье проводится лингвистический анализ повести «Каракоз Меджнун» на основе принципа интертекстуальности. Приводятся сведения об интертекстуальности. Кроме того, в авторском тексте раскрываются явления аллюзии, реминисценции, заглавия и эпиграфа

Ключевые слова

Интертекстуальность, аллюзия, реминисценция, название, эпиграф.

Abstract

This article analyzes the story "Qarakoz Majnun" linguistically based on the principle of intertextuality. In addition, information about intertextuality is provided. In addition, the author's text reveals the phenomena of allusion, reminiscence, title, and epigraph.

Keywords

Intertextuality, allusion, reminiscence, title, epigraph.

Intertekstuallik matn tahlilida asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, bugun u lingvistika va adabiyotshunoslikning tadqiq predmetlaridan biriga aylanib ulgurdi. Intertekstuallik fransuz olimasi Y.Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy muomalaga kiritildi. Uning “Baxtin, so‘z, dialog va roman”1 nomli ilmiy risolasida ilk bor bu atama qo‘llangan va intertekstuallik hodisasiga ta’rif berilgan. Olima intertekstuallik hodisasi, asosan, ko‘proq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urg‘u beradi. Y.Kristevaning intertekstualikka bergan ta’rifi quyidagicha: “Har qanday matn sitalar mozaikasidan tuzilgan va har qanday matn boshqa bir matn bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi”.

1 Кристева Ю. Бахтин,слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. -М., 2000. – С. 427-457.

Intertekstuallik bu – matn ma'nosining boshqa matn orqali shakllanishidir. Intertekstuallik nazariyasi bilan shug'ullangan tadqiqotchi N.Pege-Gro "Intertekstuallik nazariyasiga kirish" asarida fransuz olimi Labruerning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Hamma narsa allaqachon aytib bo'lingan, biz shunchaki kech tug'ildik2. Chunki odamlar yetti ming yildan ko'proq vaqt davomida yer yuzida yashab, o'ylashadi". Intertekstuallikning lug'aviy ma'nosi shuki, inter- o'rtasida, orasida, tekst-matn, ya'ni matn ichida matn kelishidir. Shu o'rinda aytish o'rinliki, bir matn boshqasi bilan mustahkam, chambarchas aloqada ekan, bu aloqadorlik shu matnlar o'rtasidagi umumiy madaniy kodlarning mavjudligi bilan ham harakterlanadi. Misol uchun, mumtoz adabiyot namunalariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ularning orasida Qu'ron syujetlari asosida yaratilgan adabiyot namunalari salmoqli ekanligini kuzatamiz. Bu Sharq badiiy matnlaridagi, adabiyotidagi o'ziga xoslik. G'arb adabiyotida esa Injil, Tavrot kabi muqaddas kitoblardan ilhomlangan holda yaratilgan badiiy asarlar yuzlab topiladi. Bu esa yaratilayotgan matnga intertekst sifatida o'sha matnni qabul qiluvchi shaxsning diniy, madaniy dunyoqarashini hisobga olgan holda matn parchalari tanlashini ko'rsatadi. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarning tahlilida shu xususiyatlarni ham inobatga olinsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

O'zbek nasrida obraz va konseptlar orqali matnlararo aloqa yaratish an'anasi keng uchraydi. Milliy realistik prozaning yorqin namoyondalaridan biri Said Ahmad o'z asarlarida xalqona nutq tabiiyligi, ruhiy kechinma va madaniy xotira qatlamlarini uyg'unlashtiradi. Adibning mashur qissasi Qorako'z majnun sarlavhasining o'zidayoq intertekstual maydon hosil qiladi: majnun leksemasi prototopik sharq oshiq obraziga, qorako'z esa mumtoz husn tasvirining poetik kodiga ishora qiluvchi lisoniy signal sifatida qabul qilinadi. Bu jarayon Sharq adabiy an'analaridagi ishq diskursi, epik oshiqlar tipologiyasi hamda folklor xotirasining zamonaviy prozadagi transformatsiyani yodga soladi.

Asar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, qissaning nomining o'zi "Qorako'z Majnun sharq adabiyotidagi "Layli va Majnun" qissasiga to'g'ridan-to'g'ri intertekstdir. Majnun obrazining asosiy belgisi – ishqda sadoqat, poklik va mardlik. Hikoyaning bosh qahramoniga "Majnun" nomining qo'llanilishi uning mumtoz sevgi timsoliga yo'naltiradi. Asar boshida epigraf ham keltirilgan:

Qu'roni karimdan:

"Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar"

(Baqara sur'asi,217-oyat.)

Hadisi sharifdan:

"Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu "Ashobi kahfning vafodor itdir". (Al-jome al-Kabir).

Intertekstualikka oid nazariy adabiyotlarda epigraf badiiy matnda intertekstualikni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri sifatida baholanadi. O'zbek badiiy matnlarida epigraf sifatida qo'llanadigan Qu'ron qismlari va hadislar, maqollar, hikmatli so'zlar, biror asardan keltirilgan she'riy yoki nasriy parchalar, muallifning o'z izohi intertekstual birliklar sanaladi. M.Yo'ldoshev o'z tadqiqotida epigraf sifatida olingan nasriy, she'riy parchalar hamda muallifning o'z izohi kabilar badiiy matnda intertekstuallikni yuzaga keltirish mumkin. Yuqoridagi keltirilganlar bunga yaqqol misol bo'ladi.

2 Пъего-Гро Н. Введение в теорию интертекстуалъности. – М.: ЛКИ, 2008. – С. 7.

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: ***google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.***
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

Badiiy matnda intertekstning bir qancha turlari bor. Rus olimasi Fateeva esa quyidagi turlarga ajratadi.

1. Allyuziya
2. Reminissensiya
3. Epigraf
4. Sarlavha
5. Havola (sitata)
6. Aforizmlar
7. Maqol, matal.

Allyuziya (lotincha – ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, tarixiy – maishiy yoki adabiy faktlarga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan Sharq she'riyatida keng qo'llangan talmeh san'atiga yaqin keladi. Hikoyada ham allyuziya hodisasiga duch kelamiz:

... Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kesdirishgan, qo'y so'yib xudoyi qilishgan edi. Bu bevosita tarixiy allyuziyaga misol bo'ladi.

...Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotganday edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: "Bo'ri bolalayapti", degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon deb ism qo'ygandi.

"Bo'ri bolalayapti" – folklor interteksti. O'zbek xalq ertaklarida bo'ri topgan bola, bo'ri tarbiyalagan bola yoki bolani bo'ri olib ketishi haqidagi rivoyatlar juda mashhur. Matnda "Bo'ri bolalayapti" degan gap – folklor syujetiga ishora, intertekst yaratiladi. Bo'rixon – mifologik nom. Bo'ri bilan bog'liq ism qo'yish – xalq tafakkuridagi mifiy obrazga ulanadi. Bu ham etnik – madaniy intertekst hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Said Ahmad qalmiga mansub "Qorako'z Majnun" asarida intertekstuallik nafaqat mazmun qatlamida, balki lisoniy vositalar orqali ham yorqin namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кристева Ю. Бахтин,слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. -М., 2000. – С. 427-457.
2. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent.: TDPI, 1999.
3. Пъего-Гро Н. Введение в теорию интертекстуалъности. – М.: ЛКИ, 2008. – С. 7.
4. Said Ahmad. Qorako'z Majnun.
5. Хомидова М. Бадиий матн перцепциясида интертекстуаллик. Тошкент, 2021.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent.: Fan, 2007.
7. Ziyo.uz
8. www.google.uz